

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI YUZASIDAN MOLIYAVIY NAZORATNI SHAKLLANTIRISH

Mohira O'tkurova, Zebiniso Zubaydullayeva, Asilbek Ergashev
TDIU "Moliya fakulteti" MMT-94 guruh talabalari

Annotatsiya: Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o‘z vaqtida to‘liq va ijobiy hal etish ma’lum moliyaviy asosni talab etadiki, aynan mazkur asosning markaziy bo‘g‘inini davlat byudjeti daromadlari tashkil etadi. Davlat moliyasini sog‘lomlashtirish, davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta’minalash O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: davlat byudjeti, daromad, xarajat, moliyaviy nazorat, byudjet-soliq siyosati, soliqlar, byudjet tashkilotlari.

Moliyaviy nazoratni rivojlantirish muammosini hal qilish davlat moliyaviy nazorati tizimini shakllantirishni taqozo etadi, bu davlat resurslarini jamiyat uchun ustuvor yo‘nalishlarga taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat xarajatlarini boshqarish, nazoratni takomillashtirish, xalqaro standartlar asosida davlat moliyaviy nazorati organlarining turli darajalarini ishlab chiqish va tartibga solish imkonini beradi. Shuni yodda tutish kerakki, moliyaviy nazorat har doim yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan dinamik jarayondir va shuning uchun u bilim darajasidan qat’i nazar, uzoq muddatda iqtisodiyot fanining tadqiqot ob’ektida mustahkam va munosib o‘rin egallashi kerak, ayniqsa o‘tish iqtisodiyotida.

Bozor iqtisodiyotida moliyaviy nazoratning ahamiyati keskin oshganligi sababli, moliyaviy nazoratning ahamiyati ham sezilarli darajada oshib bormoqda.

Ma’muriy hukmronlik tizimidan farqli o‘laroq, bozor iqtisodiyotida davlatning demokratik boshqaruvi tamoyillariga asoslangan iqtisodiy funktsiyalari sezilarli darajada cheklangan bo‘lib, bu iqtisodiy erkinlikni rag‘batlantiradi, ammo bunday erkinlikni qo‘lga kiritish hech qachon o‘zboshimchalik va zararli natijalarga olib kelmasligi kerak. Shu sababli, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida iqtisodiyot ustidan davlat nazoratining ahamiyati ortib bormoqda. Konstitutsiya va tegishli qonunchilikka asoslanib, moliyaviy nazoratning asosiy shakllaridan biri bo‘lgan davlat moliyaviy nazoratining maqsadi davlatning moliyaviy siyosati amalga oshirilishini bevosita nazorat qilish, mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta’minalash, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari byudjet mablag‘laridan foydalanishni tashkil etishdir.

Hozirgi kunda davlat moliyaviy nazorati mamlakatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari, moliya va soliq organlari, g‘aznachilik tizimi va boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshirilmoqda. G‘aznachilik va soliq organlari ushbu organlar orasida juda muhim rol o‘ynaydi. Moliyaviy nazorat tizimi davlat byudjetining maqsadli va samarali sarflanishi, maqsadli byudjet mablag‘lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari, shuningdek davlat kafolati ostida olingan kreditlar ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi. Davlat moliyaviy nazorati, shuningdek, alohida vazirliklar va qo‘mitalarning nazorat-taftish idoralari, bosh buxgalteriya va moliya bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi bosqichida eski boshqaruv tizimini tiklash, yangilash va takomillashtirish zarurligiga ishonamiz. Moliyaviy nazoratni takomillashtirish, birinchi navbatda, eng zamонави boshqaruvni tashkil etish va ishlashini, boshqaruv tizimini muvofiqlashtirishni va uning ta’sirini oshirishni o‘z ichiga olishi kerak.

Ko‘plab jahon olimlari moliyaviy nazorat va davlat byudjeti ijrosi ustidan nazoratni o‘rganishga murojaat qilishdi. Davlat byudjeti asosan iqtisodiyotda davlat tovarlari va xizmatlarini ishlab chiqaradigan davlat sektorini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Davlat sektori jamiyat uchun juda muhim xizmatlarni taqdim etadi (McKenzie, 1988). Bu haddan tashqari kompensatsiya funktsiyasi sifatida ishlaydi. Ya’ni, bozor iqtisodiyoti samarali qila olmaydigan yoki amalga oshirish uchun yetarli stimulga ega bo‘lmasan narsalarni qiladi. Musgrave va Musgrave (1976) davlat sektorining funktsiyalarini quyidagicha tasnifladilar:

- * resurslarni taqsimlash-ijtimoiy imtiyozlar va xizmatlar ko‘rsatish;
- * daromad taqsimoti-adolatlilik tamoyiliga rioya qilish uchun jamiyatda boylik yoki daromad taqsimotini tartibga solish;
- * barqarorlashtirish-yuqori bandlik, narx barqarorligi va iqtisodiy o‘sishga erishish uchun soliq siyosatidan foydalanish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti daromadlarini shakkllantirishda bevosita soliqlarning o‘rni xususida ilmiy nazariy qarashlar mavjud. Chunonchi, byudjet daromadlari barqarorligiga erishish, bevosita va bilvosita soliq tushumlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, shu bilan birga, byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini oshirish yechimini kutayotgan dolzarb masala sifatida qaraladi. Shunday ekan, umumdavlat soliqlarining bir qismi qonunchilikda belgilangan normativ meyorlar asosida mahalliy byudjetlarga o‘tkazilib, umumdavlat soliqlardan ajratma me’yorlarining o‘zgarib turishi mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois qo‘shilgan qiymat solig‘i, daromad solig‘i, foya solig‘idan tushumlarni ulushli tarzda mahalliy byudjetlarda qoldirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Soliqlar va to‘lovlarni byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi natijasida mahalliy hokimiyat organlari o‘zlarining vakolatlari doirasida mahalliy soliq va yig‘imlarni tushum darajasini oshirish yo‘li bilan daromadlar bazasini oshirishga manfaati kuchaydi, shuningdek, mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini hamda yig‘uvchanlik darajasini solishtirish yo‘li bilan mahalliy hokimliklarning faoliyatini real baholash imkoniyati paydo bo‘ldi. Davlat soliq siyosati respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga, tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, aholi turmush darajasini yaxshilashga faol ta’sir etishi lozim. Binobarin, soliq siyosati - bu nafaqat soliq qonunlarining avtomatik bajarilishi, balki ularning takomillashuvidir. Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo‘nalishlariga asosiy e’tibor qaratiladi:

- soliqlarning fiskallik darajasini kamaytirib borish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatiga qulay imkoniyat va iqtisodiy shart-sharoit yaratish;
- bozorga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirish;
- davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy manbalarni yaratish;
- ish bilan bandlik muammosini bartaraf etishga sharoitlar yaratish, kam ta’minlanganlarga yordam berish;
- aholi turmush darajasini yaxshilanishini ta’minalash, soliqqa tortilmaydigan minimumlarni iqtisodiy rivojlanish darjasini va imkoniyatlariga qarab oshirib borish;
- “Istemol savatchasi” ga kiruvchi moddalarni ko‘paytirib borish va boshqalar.

Davlat soliq-byudjet siyosatining strategik vazifasi davlat mablag‘larini tuzilmaviy qayta qurishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini taminlash uchun rivojlanyotgan bozor iqtisodiyoti va uning infratuzilmasiga maqsadli tasir korsatishga yo‘naltirishdan iborat.

I. Daromadlar		47 288,6	102 296,3	162 904,1	231 721,3
1.	Bevosita soliqlar	16 699,9	33 582,2	51 541,7	73 103,6
1.1	Foya solig‘i	9 521,2	18 084,5	28 255,9	40 778,9
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 622,4	14 361,9	21 553,2	29 917,4
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq	556,4	1 135,7	1 732,5	2 407,3
2.	Bilvosita soliqlar	18 425,1	36 901,6	57 448,3	83 325,8
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	13 218,3	25 844,8	39 854,4	57 885,3
2.2	Aksiz solig‘i	3 486,1	7 000,8	10 907,7	15 834,4
2.3	Bojxona boji	1 720,6	4 055,9	6 686,2	9 606,1
3.	Resurs to‘lovleri va mulk solig‘i	6 491,0	13 057,0	19 834,3	28 079,5
3.1	Mol-mulk solig‘i	1 316,2	2 562,4	3 683,8	5097,7
3.2	Yer solig‘i	1 425,1	3 066,4	4 674,7	6 890,1
3.3	Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	3 543,8	7 076,6	10 960,2	15 300,3
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	205,8	351,6	515,7	791,4
4	Boshqa daromadlar	5 672,6	18 755,5	34 079,9	47 212,5

1-rasm. 2023-yil davlat byudjeti daromadlari tasnifi¹

¹ Iqtisodiyot va moliva vazirligi (imv.uz) saytidan olindi.



Davlat budjeti mablag‘larini shakllantirishda uning ham xarajatlar qismini, ham daromadlar qismini belgilash muhimdir, chunki budjetning daromadlari va xarajatlari o‘zaro bir-birini taqozo etadi, uni to‘liq hisobga olmaslik, noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. Budget siyosatining asosiy yo‘nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o‘rtasida qayta taqsimlash va respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida, davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iboratdir. Respublikamizda budget ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, budgetdan mablag‘ bilan ta’minalashni takomillashtirish hamda mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanish, budget intizomini ta’minalash budget tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Budget jarayonlarida, jumladan, budget ijrosini qat’iy ta’minalashda budgetdan birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish, budget mablag‘laridan maqsadli, samarali foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashtirilishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Budget jarayonini mavjud qonunchilik asosida, budget ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, budgetdan mablag‘ bilan ta’minalashni takomillashtirish hamda mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanish, budget intizomini ta’minalash budget tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O‘quv qo ‘llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo ‘llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo ‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташабbusli бюджетни жорий этишининг ташкилий-хуқуқий асослари - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.

9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртларо конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
11. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
12. У. Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари. - Science and Education, 2023
13. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
14. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
15. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
16. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
17. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
18. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
19. O‘roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarini jalg qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 229-239.
20. Dilmurod o‘g’li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA’SIRI." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.1 (2024): 19-23.
21. Vohidjonovich B. N., Jahongirovna R. N. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KAMBAG’ALLIK MUAMMOSI //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 20-21.
22. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 934-940.
23. Gulshoda B., Nozimaxon R. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ TİZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 2. – С. 178-183.